

BIOLOGIYA FANINI O'QITILISHIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

Navbahor Yusupjonova Xolmatjonovna

Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi

Ergashev Asadbek


Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim maktabi XI -sinf o'quvchisi Mavzuning annotatsiyasi.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida maktab bitiruvchilarining ilmiy-texnik savodxonligini, ko'nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga zamonaviy texnik tizimlardan professional darajada foydalanish, loyihalashtirishni o'rgatadi va umumiy o'rta ta'limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi

Kalit so'zlar: "Ekologik daqiqa", "Zinama-zina", "Idrok haritasi", "Men kimman", "FSMU", "Aqliy hujum", «Jumlani davom ettiring», Qizil kitob.

Yangi pedagogik texnologiyalaridan "Nima uchun", "Idrok haritasi", "Men kimman", "FSMU", "Qanday" usullaridan biologiya darslarida ekologik daqiqasida o'quvchilar ongiga ekologik tushunchalarni singdirish. Mavzularini o'tishda foydalanish orqali biologiya, fizika, geografiya fanlari bilan bevosita bo'g'lash mumkin. Bu texnologiyalari orqali o'quvchilarga oddiy savollardan murakkabga tomon boriladi, bunda o'quvchining eslab qolish qobiliyati rivojlantiriladi. 2


Darslikdan foydalanib hayotning tuzilish darajalarini tartib raqamlar asosida yangi mavzuga oid tayanch so'z va iboralarning yozing



1 Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi


2 10 sinf biologiya darsligi Toshkent 2017 yil A.G'ofurov, J.Tolipova

Fanlarga bog'lagan holda qaysi hayvon Qizil kitobga kiritilgan va hayvon haqida ma'lumot yozing.



Biologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarga turli pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, o'z ustida izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshishga yo'naltiradi, ularning o'qishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi. 3

«Jumlani davom ettiring» metodi- bu metodda o' quvchilar o' qituvchi tomonidan keltirilgan jummalarni davom ettirishlari kerak.Bu metod o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga, tezkorlikka va hozirjavoblikka o'rgatadi.



Biologiya darslarida quyidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor beriladi:

yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar;

yangi mavzuni bayon qilish uchun har biri 5-10 minutli bo'lgan o'quv filmlar, videotasvirlar, multimediyalar;

turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan o'yinli multimediyalar.

Bulardan tashqari, o'quvchilar mustaqil shug'ullanishlari uchun elektron darsliklar yaratish ko'zda tutiladi. Elektron darslikda ayrim muhim mavzular yoki deyarli barcha mavzular bayoni, undagi mashqlar, topshiriqlar, testlar multimediya orqali beriladi. Unda turli mashqlar, topshiriqlar va testlar o'yinli multimediyalardan iborat bo'lishiga erishish lozim.

Elektron vositalar o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, o'zlari ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi, bo'sh vaqtlarining mazmunli va foydali bo'lishiga ko'maklashadi.

biologiyani o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda sun'iy intellektni oshiradi:

fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tadbiri orqali o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatlari rivojlantiriladi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashga va o'zini jismoniy chiniqtirish uchun o'quv va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.⁵

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Sayyoramizda ekologik muammolar va tanglik yuz berayotgan jarayonda o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish zarur

Ekologik madaniyat umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanalib, shaxsning ma'naviy hayoti va kundalik hayotida hatti-harakat shaklida namoyon bo'ladigan, hayotning va tabiatning bebaho ahamiyatini anglash, ularni asrab avaylash, muhofaza qilishda faollik ko'rsatish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi har bir darsda, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ekskursiyalarda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha rejali va muntazam ish olib borishi zarur.

O'qituvchi biologiya o'quv fanini o'qitish orqali ekologik tushunchalar: organizm va muhitning o'zaro bog'liqligi, tabiiy jamoalarning almashinuvi, biogeotsenozlar, ekologik sistemalarning o'zgarishi, biosfera, insonning ekologik omil ekanligi o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirishlari, ko'nikma va malakalarni egallashiga erishishi lozim.

O'quvchilarga biologiya darslarida insonning jonsiz va jonli tabiatga, o'simliklar olami va hayvonot dunyosiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'sirini yoritish asosida, fan sohalari bo'yicha to'plangan ilmiy bilimlarini fanlararo bog'lanishlar amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarurligini uqtirish lozim.

Uyda, ko'chada, maktabda va tabiat quchog'ida atrof-muhitdagi xavflar haqida tasavvurini kuzatuvchanlik va mulohaza qilish xulq ko'nikmalarini shakllantiriladi.

Atrof-muhitning inson salomatligiga ta'sirini o'quvchilarda ularni o'rab turgan atrof- muhitni muhofaza qilishni tarbiyalash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Tolipova, A.T.G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. T., «O'qituvchi», 2002 y;

⁵ Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi

2. A.Hamidov va boshqalar. Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. T., «O'qituvchi», 1999 y;
3. A.A'zamov. A.Yusupov.- O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent-2002.
4. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In KoH[^]epeH[^]uu.
5. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features. EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH(IJMR), 2020, november, No6, page510-513.
6. Ergashev A. Nemis tili o'qitish metodlari. Farg'ona, FARDU. (2023, October). 144-147 betlar. ISOC International Scientific Online Conferences. Journal of Google scholar